

Akademik To'ra Mirzayev vafot etdi

O'zbek ilm-fani og'ir judolikka uchradi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, folklorshunos olim, O'zR FA akademigi To'ra Mirzayev 2020-yil 29-sentyabrda 84 yoshida vafot etdi.



Marhumning oila a'zolari va yaqinlariga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti hamda ko'p sonli shogirdlari nomidan chuqrur hamdardligimizni bildiramiz.

Atoqli olim, mehribon ustoz, kamtarin inson To'ra Mirzayevning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.